

Q38.2
81
X-74

Mahfuzaxon Xomidova

BADIIY MATN PERSEPSIYASIDA INTERTEKSTUALLIK



Monografiya

O'z.b.2
81
X-74

O'quv zali

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Xomidova Mahfuzaxon Farhodjon qizi

BADIIY MATN PERSEPSIYASIDA INTERTEKSTUALLIK

"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2023

O'z MU
O'zbek filologiyasi
fakulteti
ARM

UO•K: 894.375
KBK: 83.3(50•z)
X 16

Xomidova Mahfuzaxon Farhodjon qizi.

Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik [Matn] : monografiya /
M.F. Xomidova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 126 b.

Badiiy matn tadqiqi deyarli bir asrlik tadrijiy yo‘lni bosib o‘tdi. Bu vaqt davomida matn va uning ta‘riflari, turlari, tahlili, lingvopoetikasi dunyo tilshunoslari tomonidan tadqiq qilindi. Badiiy matnning o‘ziga xos jihatlari, tarkibiy qismlari va til xususiyatlariga oid keng ko‘lamli va samarali tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham so‘ngi yillarda matn tilshunosligi keng rivojlandi va bu matnning antroposentrik tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarga yo‘l ochdi. Ushbu monografiyada intertekstuallik hodisasi, uning turlari va manbalari, badiiy matndagi vazifalari va persepsiyasi haqida ma‘lumot berilgan. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning mazmuniy idrokida intertekstuallikning o‘rni tajriba natijalari asosida tahlilga tortilgan.

Monografiya tilshunos olimlar, oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishi talabalari, magistrantlar hamda matn tadqiqi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

Muhabbat Kurbanova – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Durdona Xudoyberganova – filologiya fanlari doktori, professor

Gulchehra Keldiyorova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashi
(2023-yil 24-maydagi 5-sonli bayonnoma) tomonidan nashrga tavsiya
etilgan.

ISBN 978-9943-9195-2-5

© Xomidova M.F.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

KIRISH

Jahonda matn tilshunosligi muammolari, xususan, matnning tuzilishi, tarkibi, uning lingvistik xususiyatlariga qiziqish hamisha katta bo'lgan. Bu masalalarga doir ko'plab tadqiqotlar yaratilgani holda, endi bevosita matnning qabul qilinishi, inson tafakkuri rivojida, til ko'nikmalarini egallashda hamda chet tillarini o'zlashtirishdagi ahamiyati haqidagi ishlarga ham ehtiyoj tug'ilmoqda. Lingvistik tadqiqotlarda matn va uning idroki masalasi muhim obyekt darajasiga ko'tarilishi yangi ilmiy muammolarning tadqiqiga ham sabab bo'lmoqda.

Dunyo tilshunosligida matnni inson tafakkuri mahsuli sifatida uning yaratuvchisi, qabul qiluvchisi bilan kompleks tarzda o'rganish psixolingvistik, sotsiolingvistik hamda pragmalolingvistik tadqiqotlarning amalga oshirilishiga imkon yaratdi. Matnning yaratilishi, uning idrok qilinishi, tushunilishi kabi masalalar dolzarb muammo sifatida talqin qilinmoqda. Qayd etish joizki, bu yo'nalishda dunyo tilshunosligi qator yutuqlarga ham erishdi. Shu ma'noda o'zbek badiiy matnining mazmuniy idrok qilinishi, bu jarayonga ta'sir qiluvchi omillar, jumladan, intertekstuallikning o'rnini ochib berish nazariy va amaliy jihatdan hal qilinishi muhim masala sifatida davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham dunyo tilshunosligining yangi ilmiy paradigmalari asosida badiiy matn tadqiqi doirasi kengaydi, uning mazmuniy idrok qilinishi, kitobxon tafakkurini boyitishi va nutq madaniyatini oshirish kabi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga jiddiy kirishildi. Badiiy matn persepsiyasi va bu jarayonga intertekstuallik hodisasining ta'sirini o'rganish ham badiiy asar tahlili, matnning o'ziga xosligi, kitobxon uchun foydali jihatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, "bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Badiiy matndagi intertekstual birliklarni aniqlash,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" Фармони. Тошкент шаҳри, 2019 йил 21 октябрь.

ularning mazmuniy persepsiyaga ta'siri masalasini o'rganish tilning yangi, lekin tadqiq qilinmagan jihatlarini aniqlashga imkon beradi.

Badiiy matndagi intertekstuallik tamoyili dunyo tilshunosligi va adabiyotshunosligida shu paytgacha atroflicha o'rganilgan. Ilk marta bu atamani fanga fransuz olimasi Y. Kristeva olib kirdi². Shundan so'ng I. Arnold, N. Fateeva, N. Kuzmina, P. Torop, N. Pege-Gro, M. Yampolskiy³ kabi olimlar uning nazariy asoslarini yaratdi. Intertekstuallik barcha matn turlari doirasida, ayniqsa, badiiy matndagi intertekstuallik hodisasi jahon filologiyasida chuqur o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosi dastlab M. Yo'ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Olimning doktorlik dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasi, uning badiiy matn tarkiblanishidagi o'rni va o'zbek badiiy matnlarida uchraydigan turlari haqida ma'lumot berilgan⁴. D. Xudoyberganova esa badiiy matnning antropotsentrik tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi presedent birliklarning lingvokulturologik xususiyatlariga urg'u bergan⁵. Z. Saliyeva o'zbek va ingliz tilidagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholagan⁶.

² Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М., 2000. – С. 427-457. <http://www.philology.ru/literature1/kristeva-00.htm> 05.10.2021. 12:17

³ Арнольд И. В. Проблемы диалогизма, интертекстуальности и герменевтики (в интерпретации художественного текста) Текст. / И. В. Арнольд. СПб.: «Образование», 1995. – С. 60. Арнольд И. В. Проблемы интертекстуальности Текст. / И. В. Арнольд // Вестник СПбГУ. Сер. 2: История, языкознание, литературоведение. – Вып. 4 (№23), 1992. – С. 53-61. Арнольд И. В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность Текст. / И. В. Арнольд. Сб. ст.; – СПб., 1999. 443 с. Фатеева Н. А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н. А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка. 1997. Т. 56. Кузьмина Н. А. "Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка. – Е., 1999. – С.8-10. Тороп П. Х. Проблема интертекста Текст. / П. Х. Тороп // Текст в тексте: труды по знаковым системам; XIV. Учёные записки Тартуского гос. универс. Вып. 567. – Т.: Тарт. ун-т, 1981. – С. 33-44. Ямпольский М. Б. Память Тиресия: интертекстуальность и кинематограф. – М.: Инфра-М, 1993. – С.408.

⁴ Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б.128.

⁵ Худойберганова Д. Бадий матнинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б.129-154.

⁶ Салиева З. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сенцентни в английском и узбекском языках: Автореф дисс. кан. филол. наук. – Т., 2010.

D.Andaniyozova “Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasida intertekstuallikning bir turi bo‘lgan allyuziv nomlarning xususiyatlari haqida fikr yuritgan⁷. Tarjimashunos, adabiyotshunos olim M. Xolbekovning ham intertekstuallik yuzasidan bir qancha maqolalari e‘lon qilingan⁸. Matn mazmuniy idroki muammosi esa I. Azimovanning nomzodlik dissertatsiyada gazeta matnlari misolida tadqiq qilingan⁹. D. Xudoyberganova ham matn mazmuniy persepsiyasining xususiyatlari haqida “Badiiy matnning antropotsentrik tadqiqi” nomli doktorlik dissertatsiyasida to‘xtalgan.

Mazkur monografiyada intertekstuallik hodisasining badiiy matndagi rolini belgilash, badiiy matnning mazmuniy idrokida intertekstual matnlarning o‘rnini ochib berish maqsad qilingan. Ushbu tadqiqotda intertekst va intertekstuallikning xos xususiyatlarini ochib berish, o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekst turlarini aniqlash va ularni manbalari asosida tasnif qilish, zamonaviy tilshunoslikdagi matn mazmuniy idroki xususidagi qarashlar asosida badiiy matn persepsiyaning o‘ziga xos jihatlarini va bu jarayonda intertekstuallikning o‘rnini dalillashga harakat qilingan. Badiiy matndagi intertekstual vositalarning asosiy vazifalarini aniqlash hamda badiiy matn persepsiyasida epigraf, sarlavha, allyuziya, iqtibos kabi intertekst turlarining rolini ochib berish kabi masalalar diqqat markaziga qo‘yilgan.

⁷ Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик birliklar lingvopoetikasi. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. – Б.48.

⁸ Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013 йил, 6-сон.

⁹ Азимова И. Ўзбек газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. Фил. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 119.

I BOB. INTERTEKSTUALLIK VA UNING NAZARIY ASOSLARI

XX asr gumanitar bilimning turli sohalari, birinchi navbatda, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda har tomonlama ko'rib chiqilgan, ayni paytda, kompleks tadqiqot, chuqur va keng tahlil jarayonida hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalardan biri bu, so'zsiz, intertekstuallikdir¹⁰.

Bugun o'zbek tilida intertekstuallik va intermatnlik atamalari parallel tarzda qo'llanmoqda. Har ikkisinin mohiyati aslida bir bo'lgani uchun biz o'z tadqiqotimizda uslubiy g'alizlikning oldini olish va jahon ilmiy tajribasiga suyanagan holda intertekstuallik terminini qo'llashni lozim topdik.

1.1. Intertekstuallik va uning o'rganilishi

Muayyan zamon va makonda matnni boshqa matnlar bilan bog'lash, boshqacha qilib aytganda, matnlar o'rtasidagi uzviy bog'lanish, o'zaro munosabat mavjudligiga e'tibor qaratish nafaqat zamonaviy adabiy oqimlar, balki gumanitar fanlar doirasiga kiruvchi barcha fanlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etuvchi omilga aylandi.

Intertekstuallik matn tahlilida asosiy tamoyillardan biri bo'lib, bugun u lingvistika va adabiyotshunoslikning tadqiq predmetlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu atama fransuz olimasi Y. Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritildi. Uning "Baxtin, so'z, dialog va roman"¹¹ nomli ilmiy risolasida ilk bor bu atama qo'llangan va intertekstuallik hodisasiga ta'rif berilgan. Olima intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta'kidlab, ko'proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg'u beradi.

Y. Kristevaning intertekstuallikka bergan ta'rifi quyidagicha: "Har qanday matn sitatalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday

¹⁰ Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2013 йил, 6-сон.

¹¹ Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. — М., 2000. — С. 427-457. <http://www.philology.ru/literature1/kristeva-00.htm> 05.10. 2021. 12:17.

matn boshqa bir matn bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi”¹². Garchi olim aytganidek, har bir matn sitatlar mozaikasidan iborat bo‘lmasa ham, har qanday matnda, albatta, intertekstual birliklarning biriga duch kelish mumkin.

Intertekstuallik bu – matn ma’nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. Intertekstuallik nazariyasi bilan shug‘ullangan tadqiqotchi N. Pege-Gro “Intertekstuallik nazariyasiga kirish” asarida fransuz olimi Labruyerning quyidagi fikrlarini keltiradi:

“Hamma narsa allaqachon aytib bo‘lingan, biz shunchaki kech tug‘ildik. Chunki odamlar yetti ming yildan ko‘proq vaqt davomida yer yuzida yashab, o‘ylashadi”¹³. Bu fikrlar bevosita matn nazariyasiga, uning tarkiblanishi hamda intertekstualligiga ishoradir.

*Intertekstuallikning lug‘aviy ma’nosi shuki, inter - o‘rtasida, orasida, tekst-matn*¹⁴, ya’ni matn ichida matn kelishidir. Matnlar orasida nafaqat yaxlit butun matn, balki uning parchasi(havola) yoki unga ishora qiluvchi birliklar(allyuziya) uchrashi mumkin. Mana shu hodisa dunyo ilm-fanida bugun intertekstuallik termini ostida tadqiq qilinmoqda.

Matnlarning o‘zaro aloqasi, ma’lum matn ichida boshqa davr, muallif yoki xalqqa oid o‘zga matn hamda uning parchalari uchrashi, ya’ni intertekstuallik hodisasi faqatgina filologlarni emas, balki faylasuf, etnograf, madaniyatshunoslarni ham juda qiziqtirgan. Hatto intertekstuallik haqidagi qarashlar qadimiy mutafakkirlarning asarlarida ham uchraydi. Xususan, Aristotel notiq nutqidagi begona nutq parchasi va badiiy matndagi o‘zga matn elementlari haqida fikr bildirgan. U aynan bu hodisani intertekstuallik termini bilan atamagan bo‘lsa-da, intertekstuallik mohiyati haqida to‘g‘ri fikr bildirgan¹⁵. Intertekstuallik yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosan, uning genezisi, xususiyatlari va turlari masalasiga ko‘proq urg‘u beriladi.

Rus faylasufi va filologi M. Yampolskiyning ta’kidlashicha, intertekstuallik nazariyasi quyidagi uch manbaga asoslanadi:

¹² O‘sha asar. – B. 460.

¹³ Пьер-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 7.

¹⁴ <https://slovar.cc/isk/bichkov/2478575.html>

¹⁵ Аристотель. Поэтика. Риторика [Текст]/ Аристотель. – СПб. Азбука, 2000. – С. 347.

1. *Y. Tinyanovning parodiya nazariyasi.* Tinyanov intertekstuallikning kelib chiqishini badiiy adabiyotdagi parodiya janri bilan bog'laydi.

2. *M. Baxtinning matn polifoniyasi nazariyasi.* Baxtin har qanday matn o'zaro dialogik munosabatlardan tashkil topishi va "ko'p ovozlilik" nazariyasini ilgari suradi.

3. *F. De. Sossyurning anagramma nazariyasi.* Bunda harflarning almashinishida yangi so'z yasaliishi muhim bo'lib, matnga ham shu xususiyat xos deb qaraladi. Ya'ni oldin yaratilgan, avvaldan ma'lum matnlar yangi matn tarkibida kelib unga yangicha mazmun bag'ishlaydi.

Rus filologi N. Kuzmina ham intertekstuallik terminini fanga dastlab fransuz poststrukturalizmi vakillari olib kirganligini ta'kidlaydi. Ammo uning genezisiga nazar solib, u aynan birinchi marta rus tilshunoslik an'analariida paydo bo'lganini qayd qiladi. Xususan, rus psixolingvisti A. Potebnyaning ta'kidlashicha, til insonlarga dunyoni bilishda yordam beradi. Bunda esa bevosita poetik obrazlar muhim o'rin tutadi. Insoniyatga avvaldan ma'lum bo'lgan afsona va miflar, maqol, matallar ularning ongida alohida poetik obraz sifatida shakllangan bo'ladi. Matn ichida ularning intertekst sifatida kelishi esa kishining lisoniy xotirasiga ta'sir qilib, matn mazmuniy idrokini qulaylashtiradi. N. Kuzmina uning shu fikrlariga tayanib, intertekstuallikning ildizini rus tilshunosligiga bog'laydi¹⁶. Bu kabi qarashlar intertekstuallikning ildizi juda uzoqqa borib taqalishini, ammo muayyan ilmiy muammo sifatida XX asrda o'rganila boshlanganligini anglatadi. Zero, insoniyat til, nutq kabi muloqot vositasidan foydalanib kelar ekan, bu jarayonda, albatta, ongli hamda g'ayrishuuriy ravishda o'zidan oldin yaratilgan matnlarga ham murojaat qiladi. Keyingi yillarda esa filologiya ilmida intertekst hamda matnda intertekstuallik kategoriyasining namoyon bo'lishiga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ko'paydi. I. Arnoldning intertekstuallik poetikasi, badiiy asar tushunilishidagi o'rni, N. Fateevaning intertekstual birliklar tipologiyasi va turlari haqidagi tadqiqotlari, Y. Bashkatova, P. Torop, T. Litvinenkoning dissertatsiyalari,

¹⁶ Кузьмина Н. А. Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка. —Е., 1999. — С.8-10.

M. Gasparov, I. Galperinning matn va intertekstuallik nazariyasiga oid asarlari¹⁷ yuzaga keldi. Shuningdek, dunyo olimlari intertekstuallik hodisasining lingvistika va adabiyoshunoslikdagi o'zni hamda uning turli xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan uning nazariy asoslariga ma'lum ma'noda o'z hissalarini qo'shdi. Xususan, A. Abramov, Y. Lotman, K. Sidorenko, V. Chernyavskaya, H. Burger, M. Pfister, M. Yampolskiy, A. Frank, M. Riffater kabi olimlar intertekstuallik tamoyilini turli tomondan tadqiq qilgan¹⁸.

Intertekstuallikka aloqador monografik tadqiqotlar esa XX asrning so'nggi o'n yilligida paydo bo'ldi. V. Milovidov, I. Smirnov, I. Tolochin, A. Ustin, N. Fateeva kabi olimlarning ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin¹⁹.

I. Arnold, G. Lushnikova, P. Verdonk kabi olimlarnig o'quv qo'llanmalarida esa intertekstuallikka bag'ishlangan alohida boblar ajratilgan²⁰.

¹⁷ Фатеева Н. А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка, 1997. Арнольд И. В. Проблемы диалогизма, интертекстуальности и герменевтики (в интерпретации художественного текста) Текст. / И. В. Арнольд. СПб.: «Образование», 1995. — 60 с. Арнольд И. В. Проблемы интертекстуальности Текст. / И. В. Арнольд // Вестник СПбГУ. Сер. 2: История, языкознание, литературоведение. -Вып. 4 (№23), 1992.-С. 53-61. Арнольд, И. В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность Текст. / И. В. Арнольд. Сб. ст.; СПб, Изд-во С.-Петерб. ун-та, 1999. 443 с. Башкатова Ю. А. Лингвистические особенности описаний портрета в интертекстуальном аспекте (на материале английской литературы XVIII -XX вв.) Текст. / Ю. А. Башкатова: дис. канд. фил. наук, Кемерово, 2003. — С.188. Воскресенская Е. Г. Интертекстуальные включения в произведениях И. Во Текст. / Е. Г. Воскресенская: автореф. дис. канд. филол. наук, Барнаул, 2004. — С.18. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования Текст. / И. Р. Гальперин. Изд. 2-е. М.: Едиториал УРСС, 2004. — С.144. Гаспаров Б.М. Язык, память, образ: Лингвистика языкового существования Текст. / Б.М. Гаспаров. М.: Нов. Лит. обозрение, 1996. - 352 с.

¹⁸ Андреева С. J. Библиейские реминисценции как фактор текстообразования (на материале произведений И.А. Бунина «Тень птиц», «Окаянные дни», «Миссия русской эмиграции») Текст. / С. J. Андреева: автореф. дис. канд. филол. наук. — М., 1998. — С.16. Гильдина А. М. Новеллистика Джеймса Джойса: контекст, текст, интертекстуальность (на материале немецкого языка) Текст. / А.М. Гильдина: дис. канд. филол. наук, Челябинск, 2003. — С.188.

¹⁹ Устин А. К. Текст. Интертекст. Культура Текст. / А.К. Устин. -СПб.: SuperMax, 1995. — С.112. Фатеева Н.А. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Серия литературы и языка. 1998. Т. 57. - №5. - С. 25 - 38. Миловидов В.А. Текст. Контекст. Интертекст. Введение в проблематику сравнительного литературоведения Текст. / В.А. Миловидов. Тверь, 1998. — С.83.

²⁰ Арнольд И. В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность Текст. / И.В. Арнольд. Сб. ст.; СПб, Изд-во С.-Петерб. ун-та, 1999. — С. 443. Лушников Г.И. Интертекстуальность

Интертекстуаллик bo'yicha e'lon qilingan ishlarning mundarijasiga e'tibor qarataidigan bo'lsak, ularning asosini badiiy matnni shu kategoriya asosida tahlil qilish yotadi. Xususan, T. Avetova, L. Andreeva, Y. Bashkatova, Y. Voskresenskaya, Y. Goncharova, N. Kamovnikova, A. Malchenko, A. Satretdinova, J. Fomicheva, I. Selovalnikov, N. Pigina kabi olimlar nasriy hamda nazmiy matnlardagi intertekst turlarini tahlil qilishgan²¹.

So'nggi yillarda yaratilgan ishlarda esa intertekstuallik hodisasi faqat badiiy matnga daxldor emasligi isbotlandi. Intertekstuallikni ilmiy matnlarda Y. Mixaylova, A. Suprun, V. Chernyavskaya²², publitsistik uslub matnlarida Y. Zemskaya, T. Sandalova, T. Uskova²³, ish matnlarida A. Suprun, shuningdek, siyosiy, yumoristik, pedagogik va diniy diskursda ham intertekstuallik

художественного произведения Текст. / Г.И. Лушникова. Учеб. пособие. – Кемерово: КемГУ, 1995.

²¹ Аветова Т. Ю. Роль интертекстуальности в создании художественного образа // Интертекстуальные связи в художественном тексте. СПб, 1993. — С. 67-76. Башкатова Ю. А. Лингвистические особенности описаний портрета в интертекстуальном аспекте (на материале английской литературы XVIII-XX веков): Дис. канд. филол. наук. Кемерово, 2003. — С. 188. Е. А. Гончарова. Интертекстуальные связи в художественном тексте. 20-28, 1993. Камовникова Н.Е. Антропони́мы как интертекстуальные аллюзии в поэтическом тексте: Автореф. дис. . канд. филол. наук. СПб., 2000. Мальченко А. А. "Чужое слово" в заглавии художественного текста // Интертекстуальные связи в художественном тексте. СПб., 1993. — С. 76-82. Фомичева Ж. Е. Иностилевые скопления как вид интертекстуальности // Интертекстуальные связи в художественном тексте. СПб., 1993. — С. 82-91. Сатретдинова А. Х. Интертекстуальность поэзии В. Брюсова: дис. кандидат филологических наук: Астрахань, 2004. Целовальников И. Ю. Интертекстуальность прозы А. Ремизова: дис. кандидат филологических наук: Астрахань. 1999. <https://www.dissercat.com/content/intertekstualnost-kak-faktor-tekstoobrazovaniya-v-liricheskikh-tsiklakh-rm-rilke>

²² Михайлова Е. В. Интертекстуальность в научном дискурсе (на материале статей) Текст. / Е. В. Михайлова: дис. канд. филол. наук. Волгоград, 1999. — 205 с. Супрун А. Е. Текстовые реминисценции как языковое явление Текст. / А.Е. Супрун // Вопросы языкознания. 1995. - №6. - С. 17- 29. Чернявская В. Е. Интертекстуальность как текстообразующая категория в научной коммуникации: На материале немецкого языка: дис. доктор. <https://www.dissercat.com/content/intertekstualnost-kak-tekstoobrazuyushchaya-kategoriya-v-nauchnoi-kommunikatsii-na-materiale>

²³ Земская Е. А. Цитация и виды её трансформации в заголовках современных газет Текст. / Е.А. Земская // Поэтика. Стилистика. Язык и культура. М.: МГУ, 1996. С. 157- 168. Сандалова Т.А. Интертекстуальные включения как средство языковой игры в тексте советского газетного фельетона (на материале центральных газет с 1970 по 1991 годы) Текст. / Т.А. Сандалова: дис. канд. фил. наук. СПб., 1998. - 214 с. Ускова Т. А. Вербализация интертекстуальности в текстах массовой коммуникации Текст. / Ускова: дис. канд. фил. наук, — М., 2003. — С. 206.

elementlari yaqqol namoyon bo'lishi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Uzoq vaqt davomida o'rganilgan bu murakkab fenomen filologiya, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslikning obyekt sifatida maydonga chiqdi. Olimlar tomonidan matndagi intertekstual aloqalarning ham bir necha turi farqlanadi. Xususan, matnlararo munosabatlarni chuqur o'rgangan fransuz filologi J. Jenett matnlararo harakatni 5 ta guruhga ajratib, tasniflaydi:

1. *Intertekstuallik*. Bir matn ichida ikki yoki undan ortiq o'zga matn parchasining kelishi.

2. *Paratekstuallik*. Badiiy matnning sarlavhasi, epigraf va so'nggi so'zi bilan o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi hodisa.

3. *Metatekstuallik*. Matnning o'zidan oldin yaratilgan boshqa matn bilan dialogik aloqaga kirishuvi.

4. *Gipertekstuallik*. Ma'lum bir matnning parodiya qilinib, o'zgartirilishi.

5. *Arxitekstuallik*. Matnlar orasidagi janriy bog'lanishlarning mavjud bo'lishi²⁴.

J. Jenett taklif qilgan bu tasnif keyingi ishlarda deyarli ko'zga tashlanmaydi. Matnlararo munosabatlarni o'rgangan boshqa tadqiqotchilar yuqoridagi barcha matnlararo aloqalarni intertekstuallik termini ostida birlashtiradilar. Bizningcha ham, matnlararo aloqadorlikning turlarini umumiy tarzda intertekstuallik nomi bilan atash maqsadga muvofiq, chunki bu aloqadorlik mavjud muayyan matn ichida hosil bo'ladi va intertekstuallik aynan shu hodisadir.

Intertekstuallik nazariyasiga doir tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, intertekstuallik atamasini nomlashda ham xilma-xilliklar ko'zga tashlanadi. Xususan, Y. Karaulov, D. Gudkov, S. Zaxarchenko, V. Kostomarov, V. Krasnix, N. Kryukova, Y. Proxorov, K. Sidorenko, Y. Sorokin, K. Fomin kabi bir guruh olimlar ushbu tushunchani *presedent birliklar* bilan bog'laydilar²⁵.

²⁴ <https://ru.calameo.com/read/005688072b7adf0001d32>

²⁵ Слышкин Г. Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе Текст. / Г. Г. Слышкин. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

P. Torop *intekst*²⁶, N. Arutyunova, A. Atlas, R. Dragunova *sitata*; V. Moskvina, Perkas, L. Polubichenko, Y. Semenova, I. Fomenko *paratekst*²⁷; I. Smirnov *intermediallik* yoki *intersemiotiklik* kabi atamalarini qo'llaydilar. V. Zadornova "Badiiy matnning tushunilishi va interpretatsiyasi" nomli risolasida intertekstuallik hodisasini "*filologik kontekst*" termini bilan ataydi²⁸. Bizningcha, olima "filologik kontekst" ni tor ma'noda qo'llaydi. Ya'ni badiiy matnning qandaydir tushunilishi qiyin qismida yordamga keladigan boshqa matn parchasini filologik kontekst sifatida izohlaydi. Bu holatda butun matnning to'lig'icha tushunilishi filologik yoki tarixiy-filologik xarakterda bo'lishi lozim. Bunday kontekstning keng qo'llanilishini biz parodiya janrida kuzatishimiz mumkin.

Umuman olganda, tadqiqotchilar mazkur terminlardan aynan matn ichida boshqa matn parchasining kelishi, ya'ni intertekstuallikni tavsiflash uchun foydalanganlar. Ammo barchasining nomlanishi turlicha bo'lsa-da, mohiyatida intertekstuallik tamoyili yotadi. Shu bois ham so'nggi yillarda dunyo ilm-fani terminologiyasida faqat intertekstuallik atamasi matn orasida o'zga matn yoki uning parchasi kelishi hodisasini aniq ifodalaydigan tushuncha sifatida keng qo'llanilmoqda.

Aksariyat tadqiqotlarda esa intertekstuallik ikki badiiy matnning o'zaro aloqasi, ya'ni ikkita turli yoki bir davrda yashagan adiblarning asarlaridan o'zaro foydalanish hodisasi sifatida izohlanadi. Bu aloqa badiiy matnning umumiy kompozitsiyasida, asosiy qahramonlar xarakterida yoki peyzaj tasvirida kuzatilishi mumkin. Baxtinga ko'ra, matn bir paytning o'zida mavjud va yana qayta takror bo'ladigan noyob hodisa hisoblanadi. Uning fikricha, matnda intertekst sifatida kelgan sitatalar ham makon va zamon, subyekt (matn) ning pragmatik vaziyatiga ko'ra o'zgarishi mumkin.

²⁶ Torop P. Проблема интекста // Труды по знаковым системам. XIV, Текст в тексте. – Тарту, 1981. – С. 39. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%82%D0%B5%D1%80%D1%82%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82> 15.10.2020. 21:15.

²⁷ https://esstu.ru/library/fice/Konf/East_West_2015/1_%D0%9F%D0%BE%D0%BB%D1%83%D0%B1%D0%B8%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%BA%D0%BE_%D0%9B%D0%921.pdf 15.10.2020. 21:35.

²⁸ Задорнова В. Й. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М.: Высшая школа, 1984. – С.85. Атлас А. З. Цитата как одно из средств реализации категории подтекста в поэтич. тексте (на материале англ.яз.): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Л., 1987. – С. 16.